

INGLIZ TILIDA ILOVA KONSTRUKSIYALARINING FUNKSIYALARIGA DOIR MULOHAZALAR

Olimova Mu'tabar Gaybullayevna

SamDCHTI magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslik sohasidagi ilova konstruktsiyalar bilan bog'liq kommunikativ funktsiyalarni tanqidiy ko'rib chiqadi. Til tuzilmalari va ularning kommunikativ funktsiyalari o'rta sidagi nozik o'zaro ta'sirni yoritishga qaratilgan tadqiqotda lingvistik ifodada ilova konstruktsiyalarning turli rollarini ochib berish uchun kompleks yondashuv qo'llaniladi. Ushbu konstruktsiyalarni sinchiklab ko'rib chiqish orqali muallif ilovali elementlar yordamida til foydalanuvchilari ma'no, maqsad va konteksti qanday yetkazish haqida qimmatli fikrlarni qo'shishni maqsad qilgan. Maqola lingvistikaga oid munozaraga muhim qo'shimcha bo'lib, samarali muloqot asosini tashkil etuvchi mexanizmlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va tildagi shakl va funksiya o'rta sidagi murakkab munosabatlarga oydinlik kiritadi.

Kalit so'zlar: Illova hodisasi, Illovali elementlar, Illova konstruksiyalar, kommunikativ funksiya, sintaktik aloqa, gap bo'laklari.

Hozirgi o'zgarib yangilanib ketayotgan tilshunoslikda sintaktik aloqalar o'z ichida bog'lanish, ergashish turlari bilan birga to'xtam(pauza) turlariga bo'linib murakkablashib bormoqda. Tilshunoslar fanga yangi ilova hodisasini ham kiritmoqdalar. Va shu bilan birga bu barcha tillariga oid universal hodisa bo'lib, yetarlicha o'rganilmaganligini kuzatishimiz mumkin. Tilshunoslikda bu hodisa muhim hodisalardan biri bo'lib, malumot berayotganda axborot ularsiz to'liq bo'lmay qoladi. Illova konstruksiyalar sintagmatik bog'lanish tamoyillaridan chetga chiqish, komponentni maxsus guruhga ajratish va sintaktik munosabatlarning bo'linishiga asoslangan ekspressiv sintaksis usuli sifatida qaraladi.

Ilova konstruksiyalar muallifning kommunikativ maqsadiga mos ravishda quriladi, informativ segmentatsiya esa biriktirilgan elementni faollashtirishga, mantiqiy tanlashga

yordam beradi, bu esa ilova konstruksiyada qo'shimcha semantik-sintaktik ma'no va munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ilova konstruksiyalar sintaktik hodisa sifatida ko'p jihatdan o'r ganilgan bo'lsa-da, bu muammoga bag'ishlangan lingvistik asarlarda ilova konstruksiyaning tarkibiy, semantik va funksional turlarining barcha xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tasnifi mavjud emas, bu esa ilova hodisasi bilan bog'liq strukturaviy-semantik masalalar bilan birgalikda funksional o'ziga xosligini o'r ganishning asosiy sabablaridan biridir

Illova konstruksiyalari o'ziga xos sintaksik hodisa bo'lib, ular qo'shimcha sifatida paydo bo'lgan ifoda funksiyasini bajarib keladi, ular strukturasiga ko'ra ilovali element deb ataladi. Ana shu ilovali element asosiy ifoda (asosiy gap) ma'nosini aniqlashtirib, rivojlan Tirib keladi, ma'lum darajada izohlab beradi. Bunday sintaktik strukturalar odatda ikki qismidan iborat bo'ladi, birinchi qism asosiy axborotni, ikkinchisi esa qo'shimcha xabarni ifodalab keladi. Ular nutqda birliklarning funksional qo'llanilishini birlashtiradi, ularning yordamida so'zlovchining ongida va uning nutqida asosiy ifodadan keyin, asosiy fikr bildirilgandan so'ng yuzaga keladigan qo'shimcha ma'no beradigan ifoda keltiriladi.

I.N.Kurchin va V.D.Devkinnning fikriga ko'ra ilova konstruksiyalar alohida kommunikativ ma'no kasb etadigan gapning nonstandart alohida bo'lagi sifatida qaralishi mumkin. Biz ham bu fikrga qo'shilamiz. Chunki ilovali elementlar nutqda turli xil strukturaga ega bo'ladi va kontekstning ma'nosini aniqlashtirib, to'ldirib yoki umumlashtirib keladi. Masalan:

I have to find a man who knows that universal language. An alchemist.

Yuqoridagi misolda ilovali element o'sha shaxsning aynan kimligini ta'kidlab gapning ma'nosini aniqlashtirib kelayapti.

Shuningdek sintaktik jihatdan ilova konstruksiyalari gapning grammatik va semantik tarkibini kengaytirishga yordam beradigan usullardan biri sifatida qaralishi mumkin.

I am going to go on a holiday, not for long. Less than a week.

Tadqiqotlardan ma'lumki ilovali elementlar to'liqsiz gap, yoki ergash gap ko'rinishida bo'ladi va asosiy gapga ohang yoki bog'lovchilar yordamida bog'lanib keladi. Quyida biz to'liqsiz gap ko'rinishidagi ilovali elementlarni tahlil qilib chiqamiz.

To'liqsiz gap shaklidagi ilova konstruksiyalarda gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari ilovali element vazifasini bajarib kelishi mumkin va bunda ular turli xil kommunikativ funksiyalarni bajarib keladi.

Ega vazifasidagi ilovali elementlar nutqda ko'proq uchraydi va ular asosan o'zidan oldingi gapning ma'nosini konkretlashtirib va to'ldirib keladi.

... he learned the most important part of the language that all the world spoke-the language that everyone on earth was capable of understanding in their heart. It was love.

The battles may last for a long time, perhaps even years.

Aniqlovchi vazifasidagi ilovali elementlar gapda ko'pincha postpredikativ xarakterga ega bo'ladi va ular butun gapga emotSIONAL ifoda beradi. Noodatiy tarzda ilovali element o'zi aniqlashitirib kelayotgan otdan uzoq masofada joylashsa-da u bilan sintaktik aloqani saqlab qoladi va qo'shimcha xususiyatlarini ifodalaydi. Bunda ilovali element aniqlanayotgan so'z bilan leksik jihatdan bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin va kommunikativ jihatdan nutqning aniq va to'liq bo'lishiga xizmat qiladi.

A girl from his neighborhood. Young and pretty.

To'ldiruvchi vazifasidagi ilovali elementlarda agar bosh gapdagi kesim o'timli fe'l bilan ifodalangan bo'lsa ilovali element predlogli to'ldiruvchi ko'rinishida bo'lishi mumkin.

It had brought with it the sweat and the dreams of man who had once left to search for the unknown , and for the gold and adventure-and for the Pyramids.

To'ldiruvchi bilan ifodalangan ilovali elementlar ma'lumotni aniqlashtirish yoki qo'shimcha ma'lumot berish vazifasidan tashqari aynan ilovali element tarkibidagi ma'lumotni ajratib ko'rsatish va ta'kidlash kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Bunda ular nutqning tinglovchi tomonidan oson va tez qabul qilinishiga, uzatilayotgan axborotni yanada aniq va to'liq yetkazilishiga xizmat qiladi.

Hol bilan ifodalangan ilovali elementda ko'pincha otlar predlog bilan birga kelib hol vazifasini bajaradi:

It's in Egypt, near the Pyramids!

Bunday birikmalar odatda ilovali elementning tobe qismi bo'lib quyidagi funksiyalarni bajarib kelishi mumkin:

- 1) harakatning sodir bo'lishi vaqtini joyini aniqlashtirib keladi:

I'm a shepherd, and I have been to many places, but I come from only one place - from a city near an ancient castle.

- 2) harakatning bajarilish usulini batafsil izohlab keladi:

I am dedicated to serving, no matter the task.

- 3) harakatning holatini aniqlashtirib keladi:

I felt like a ship without a rudder, lost in a storm of uncertainty.

Ushbu sohadagi adiiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqda to'liqsiz gap ko'rinishidagi ilova konstruksiyalarining ega va to'ldiruvchi bilan ifodalangan turlari nisbatan ko'proq uchraydi. Bu esa ilovali elementlarning qo'shimcha ma'no ifodalash, asosiy ifodaning ma'nosini aniqlashtirish va to'ldirish kabi funksiyalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, nutqda ilovali elementlarning potensial darajada uchrash ehtimoli bor va ba'zan zarur. Shuning uchun u universal birlik deb hisoblanishi mumkin. Kommunikativ va ekspressiv funksiyasi tufayli ilova konstruksiyalar nutqning turli uslublarida ishlatilishi mumkin. Tilshunoslikda ilova konstruksiyalarining kommunikativ funksiyalari so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotning samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Ilovali elementlar gapning kommunikativ istiqbolini ifodalovchi muhim vositadir.

Adabiyotlar:

1. **Begmatov M. Samadova A.** Ilova konstruksiyalar haqida ayrim mulohazalar. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajriba, istiqbolli izlanishlar va tillarni o‘qitishning innovatsion usullari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 61-62 b.
2. **Begmatov M.B., Begmatov Q.M.** Sintaktik aloqalar va ilova konstruksiya. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va chet tillarni o‘qitish didaktikasi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materillari. Samarqand. SamDChTI nashri. 2017, 161-162 betlar.
3. **Hamrayeva M.** Nemis tilida ilova konstruksiya struktur xususiyatlarining o’rganilishiga doir mulohazalar. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 12-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 19.10.2022
4. **Madaminova M.** Particulate constructions in the scientific literature. Current research journal of philological sciences, 2(10), 75–81.
<https://tapemark.narod.ru/les/399b.html>
5. **Турсунов Б.Т.** *Присоединение как особый тип синтаксической связи.* Автореф. дисс. док. филол. наук. Санкт-Петербург, 1993
6. **Paulo Coelho.** *The Alchemist (Translated by Alan R. Clarke).* The USA, 1993.